

NEMIS TILIDAGI „MORGENSTUNDE HAT GOLD IM MUNDE“ MAQOLINING ETIMOLOGIYASI

Ibragimova Mashxura

O‘zMU, XFF, Lingvistika (Nemis tili)

Mutaxassisligi 2- kurs magistranti

Ilmiy rahbar – professor **Sh.S. Imyaminova**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘tgan asrlarda maqollarning turlari to‘g‘risida bayon etilgan. Bundan tashqari nemis tilidagi „Morgenstunde hat Gold im Munde“ maqolining kelib chiqishi va uning turli davrlardagi qanday ahamiyat kasb etganligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: tarix, tilshunoslik, nazariya, etimologiya, qiyosiy metod, ekvivalent, bo‘yoqdorlik.

DIE ETYMOLOGIE DES SPRICHWORTES „MORGENSTUNDE HAT GOLD IM MUNDE“ IM DEUTSCHEN

ANOTATION

Dieser Artikel beschreibt die Arten von Sprichwörtern in den vergangenen Jahrhunderten. Außerdem wird die Herkunft des deutschen Sprichworts „Morgenstunde hat Gold im Munde“ erklärt und wie es in verschiedenen Epochen an Bedeutung gewann.

Schlüsselwörter: Geschichte, Linguistik, Theorie, Etymologie, Vergleichende Method, Äquivalent, Färbung.

Aller Anfang ist schwer

aber

Frisch gewagt ist halb gewonnen

Yuqoridagi maqolimizga nazaringiz tushgani aniq, "Hamma ishning boshlanishi qiyin", ammo "bir harakat yarim barokat", "yangi tashabbuslar yarmi yutadi". Ba’zilar buni qadimgi zamonlarning qoldiqlari deb o‘ylashlari mumkin, ammo hozirgi zamonda esa bu gaplarga hech qanday o‘rin yo‘q. Biz faqat bobo-buvilarimizdan eshitishimiz mumkin bo‘lgan qandaydir hikmatlar bor. Lekin bu haqiqatmi? Haqiqatan ham biz endi

maqollarni ishlatmaymizmi? Biz ularni kundalik hayotimizda uchratmaymizmi? Aksincha, hozirgi tadqiqotlar ham maqolning o'zi munosib e'tirof va e'tiborga sazovor bo'layotganini ko'rsatmoqda. Maqol va matallarning o'ziga xos qayta tiklanish davri haqida gapirish mumkin. Uning sohalari va foydalanish turlari biroz o'zgarib, hozirgi zamonga moslashgan bo'lsa-da, avvalgi asrlarda bo'lgani kabi yana o'z o'rnini egalladi.

Xalqimiz boy ma'naviy merosining ajralmas bir bo'lagi sifatida yashab kelayotgan maqol, matal va iboralarni o'rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg'ular tasvirini ko'rsatish har doim dolzarblik kasb etib kelgan.¹² Ba'zan u yoki bu maqolning qanday paydo bo'lganligi qiziq, albatta. Etimologiya esa aynan bizga qiziq bo'lgan savolga javob beradi. Etimologiya odatda, so'zlarning kelib chiqishi va tarixini, balki vaqt o'tishi bilan ularning ma'nosi va shakllari evolutsiyasini o'rganishga intiladi. Bundan tashqari u alohida so'zlarni emas, balki kattaroq bo'lgan leksik birliklarni, masalan, idioma, maqol va matallarni ham tadqiq qiladi.

Biz bilamizki, ko'pgina maqol va matallar Injil va Antik davrda Yunon va Rim mualliflari tomonidan kelib chiqqan. Ulardan ba'zilar esa nemis tiliga tarjima qilish orqali nemis xalqi ongi va tiliga yo'l topadi. Vaholanki, maqol va matallarning aksariyati avlodlarga hikmat, ogoh va nasihatlarini yetkazish maqsadida xalqning o'zida paydo bo'lgan. Shuning uchun maqollarning katta qismi o'sha davrdagi hayotning uchta asosiy sohasi:

- a. uy – ro'zg'orga oid bo'lgan maqollar; *Gebranntes Kind scheut das Feuer* (*Kuygan bola olovdan qo'rqar*)
- b. dehqonchilikka oid bo'lgan maqollar; *Auch ein blindes Huhn findet mal ein Korn* (*Hatto ko'r tovuq ham donini topib yeydi*)
- c. hunarmandchilikka oid bo'lgan maqollar; *Übung macht den Meister* (*mashq odamni usta qilar*)

¹² Sh. Mirziyoyev. "O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir" deb nomlangan o'zbek tiliga davlat maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan marosim nutqidan

Shu o‘rinda yana bir maqolimizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, *Morgenstunde hat Gold im Munde* – eng mashxur nemis maqoli hisoblanib, so‘ngi bir necha o‘n yilliklarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aholi orasida keng tarqalgan va mashxur nemis maqolidir. Biroq bu maqol 16 – asrdan beri mavjud deya hujjatlashtirilgan. Bordiyu, biz qanchadan qancha nemis maqollarini o‘rta asrlar va antik davrlarga borib taqalganligini hisobga olsak, ushbu maqol nisbatdan yosh, ammo bu maqoldan bitta maqsadning uzatilishi qanchalik murakkab va boy ekanligini ko‘rsatish mumkin. W. Mieder ushbu maqol yuzasidan o‘zining amaliy ishida bu haqida alohida to‘xtalib o‘tgan.¹³

Am Anfang sollte aber vielleicht noch eines gesagt werden: Obwohl die Umfragen bewiesen haben, dass dieses Sprichwort wirklich den meisten Leuten - ungeachtet des Alters, Sozialstandes oder Bildungsgrades bekannt ist, und dass es auch am häufigsten benutzt wird, heißt es noch längst nicht, dass sich die Leute nach ihm richten und dass die Deutschen irgendwelche Frühaufsteher sind. Das bekannteste Sprichwort muss ja nicht unbedingt auch die akzeptierteste Sprichwortweisheit beinhalten. (Yana bir narsani aytish kerak: so‘rovlar shuni ko‘rsatdiki, bu maqol yoshi, ijtimoiy mavqei yoki ta‘lim darajasidan qat‘i nazar, haqiqatan ham ko‘pchilikka ma‘lum va u eng ko‘p qo‘llaniladi., qiziqarli jihati shundaki, hali ham odamlar unga ergashadi va nemislar erta turuvchi xalq ekanligi esa bejiz emas)

Robert Geete (1881) bu maqol qanday o‘ziga xos shaklda paydo bo‘lganligi haqidagi birinchi filologik jihatdan ishonchli tushuntirishni taqdim etdi. U lotin tilidagi *os Mund* (og‘iz) so‘ziga emas, balki lotin tilidagi *manus* ya‘ni Hand (qo‘l), *Ahd* (eng qadimgi asrlarda) da *munt/munti/mundi/mundet/munta* va *Mhd* (o‘rta asrlarda) *munt* “qo‘l” ma‘nosi bilan birga berilgan. Shunda “ertalabgi tonging qo‘lingdagi oltin” maqolining zamonaviylashtirilgan matni hosil bo‘ladi – bu ertalabki mehnatning arzigulikligini ifodalovchi mutlaqo bir ma‘noli formuladir.

¹³ Röhrich L., Mieder W. Sprichwort, Stuttgart, Metzler, 1977. S. 29

Ushbu maqolning ilk ko‘rinishi “*Die Morgenröte ist die Freundin der Muse*” (*Tong - bu ilohiyotning do‘sti*”) deb taxmin qilinadi. Bu lotincha matn birinchi marta Erazmusning Rotterdamdan yozgan maktubida uchraydi. *Die Morgenstundt hat die Arbeyt im Mündt* degan nemis maqolining dastlabki dalillari 1582 yilga borib taqaladi va bugungi kunda keng tarqalgan *Die Morgenstunden hat (das) Gold im Munde* varianti faqat 1585 yildan beri hujjatlashtirilgan. Richard Jente (1927) bu eng qadimgi maqolni bugungi kunga qadar olib kelgan. Bir muncha vaqt maqolning turli shakllari ham mavjud bo‘lib, taxminan 100 yil o‘tgach esa ushbu ko‘rinishlarga ega bo‘lgan.

Die Morgenstunde hat die Arbeyt im Mündt. (1582)

Die Morgenstunde hat das Gold im Munde. (1585)

Morgenstund bringt Brot und Gold im Munde. (1605)

Die Morgenstund hat das Brod im Mund. (1669)

Morgenstunde hat Gott im Munde. (1669)

Ammo 500 yildan oshmagan bu maqol nega bugungi kunda bunchalik keng tarqalgan va mashhur, degan savol haligacha qolmoqda. Buni quyidagicha izohlash mumkin: Umuman maqol 19-asrda o‘qitishda katta rol o‘ynagan. Ayniqsa, *erta turganning rizqi unar*, ko‘pincha bu maqol axloqiy insho mavzusi sifatida ishlatilgan, talabalar erta turishning afzalliklarini taqdim etishlari kerak bo‘lgan. Natijada, bu maqol tobora ommalashib ketdi. Ko‘rinishidan, u 19-asrdan bizgacha etib kelgan bir qator boshqa evfemizmlar va anti-maqollar tomonidan ko‘rinib turganidek, qiyinchilik darajasiga qadar yanada keng tarqalgan bo‘lib qoldi.

Xulosa sifatida shuni aytish joziki, biz qo‘llayotgan maqol va matallarning avvalo kelib chiqish tarixiga bir nazar solsak ayni muddao bo‘lardi, sababi nutqimizda uni bilib, ong bilan tafakkur qilib qo‘llaganimizda tinglovchining ham qalbiga yetkaza olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Röhrich L., Mieder W. Sprichwort, Band 154. Metzler, 1977.*
2. *Imyaminova Sh. S. Nemischa – o‘zbekcha maqol va matallar lug‘ati. Toshkent, Mumtoz so‘z, 2013*